

## TARJIMASHUNOSLIK FANI. ILMIY ADABIYOTLARNING TARJIMASI VA “DEVONU LUG’OTIT TURK” ASARINING INGLIZ VA O’ZBEK TILLARIDAGI TARJIMASINING QIYOSIY TAHLILI

**Parpiboyev Botirali Rahimjon o’g’li**

**Namangan Davlat universiteti, Mustaqil tadqiqotchi**

**[botiraliparpiboyev4@gmail.com](mailto:botiraliparpiboyev4@gmail.com)**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.13683293>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola tarjimashunoslik fani, ushbu fanning paydo bo'lishi haqida qisman so'z yuritib, o'zbek adabiyoti va ilm-faniga kirib kelish jarayoni, uning rivojiga hissa qo'shgan o'zbek olimlari haqida ma'lumot beradi. shuningdek, maqolada tarjimashunoslik fanidagi yutuq va kamchiliklar, asarning badiiy, ilmiy va sisosiylik jihatiga e'tibor berishning muhimligi, tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlar yoki jumlarlar haqida batafsil so'z yuritiladi va namuna sifatida Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridan parcha keltirilib, uning inglizcha tarjimasidagi kamchilik dalillar asosida ko'rsatiladi. muallif o'z ilmiy izlanishlariga ko'ra to'g'ri deb hisoblagan tarjima variantini taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** tarjimashunoslik, ijtimoiy-siyosiy adabiyot, ilmiy adabiyot, badiiy adabiyot, folklor, maqol, madaniyat, madaniy to'siq, madaniy nuanslar, asarning birlamchi g'oyasi

**Abstract.** This article partially talks about the science of translation studies, the emergence of this science, the process of its entry into Uzbek literature and science, and the Uzbek scientists who contributed to its development. Also, the article talks about achievements and shortcomings in the science of translation, the importance of paying attention to the artistic, scientific and political aspects of the work, untranslatable words or sentences, and Makhmud Kashgari's "Diwan lugat at-Turk" is cited as an example and the shortcomings of its English translation are shown on the basis of evidence. The author presents the version of the translation that he believes to be correct according to his scientific research.

**Key words:** translation studies, socio-political literature, scientific literature, fiction, folklore, proverb, culture, cultural barrier, cultural nuances, the primary idea in the work.

**Абстрактный.** В данной статье частично говорится о науке перевод ведения, зарождении этой науки, процессе ее проникновения в узбекскую литературу и науку, а также об узбекских ученых, внесших свой вклад в ее развитие. Также в статье говорится о достижениях и недостатках переводческой науки, важности обращения внимания на художественные, научные и политические аспекты произведения, непереводаемые слова или предложения, цитируется «Диван лугат ат-Тюрк» Махмуда Кашгари. в качестве примера и на основе фактов показаны недостатки его английского перевода. Автор представляет тот вариант перевода, который он считает правильным согласно своим научным исследованиям.

**Ключевые слова:** перевод ведение, общественно-политическая литература, научная литература, художественная литература, фольклор, пословица, культура, культурный барьер, культурные нюансы, основная мысль в произведении.

Sobiq sho'ro va undan oldingi davrlarda, xususan, XIX-XX asrda tarjima asarlarni yaratish borasida ilk qadamlarni o'zbek yozuvchilaridan Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek,

Abdulla Qahhor, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilov, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali kabi adib va shoirlarimiz boshlab berdi. Shuningdek badiiy tarjima sohasida M.Osim, N.Alimuhamedov, Sh.Shomuhamedov, K.Qaxxorova, O.Sharopov, Sh.Tolipov, V.Ro'zimatov, Q.Mirmuhamedov, A.Rashidov, M.Hakimov, I.G'afurov, M.Mirzoidov, G'.To'rabekovlar professional tarjimon sifatida tanilganlar. Mustaqillik yillarida va hozirgi davrda, aksincha, o'zbek va turkiy tillardagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va badiiy asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilish jarayoni kuchaydi. Buning asosiy sababi tarixda juda ko'plab ma'naviy tahdidlarga uchragan o'zbek va turkiyzabon xalqlarning bebaho ma'naviy merosi hisoblangan badiiy va ilmiy asarlarning qayta tiklangani, arxeologik izlanishlar asosida qaytadan kashf etilgani bo'ldi.

Darhaqiqat, milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasi asosida yaratilgan asarlar tarjimalarini ilmiy jihatdan o'rganish va tadqiq qilish bugungi kun tarjimashunoslik fanining dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. O'zbek tarjimashunosligida ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimasi masalasi bir qator ilmiy ishlarda o'z aksini topgan. Jumladan, bu sohada o'zbek tarjimashunoslik maktabining asoschisi hisoblangan G'. Salomovning "Matn, tarjima va istiloh"<sup>1</sup> kitobini va ayni shu sohada yaratilgan maqolalarini misol qilib keltirish mumkin. Bularning barchasi ijtimoiy-siyosiy asarlar tarjimalari muammolari o'zbek tarjimashunosligida ozmi-ko'pmi tadqiq etilganidan dalolat beradi. G'.Salomov o'zining "Matn, tarjima va istiloh" kitobida tarjima jarayoni va tarjima san'atini tadqiq etishning tipologik, mantiqiy va lisoniy aspektlarini tahlil qilib bergan<sup>2</sup>. Bu asarda narsa va hodisalarning hamjinsligi, mushtarakligi, monandligi, farqi va tafovuti, sog'lom va nosog'lom ma'no xususidagi ilmiy tushunchalar tarjima nazariyasi va amaliyotiga tatbiq etiladi. Shu bilan birga, qo'llanmada tarjima, usul, uslub va tahrir texnikasi hamda mahorati va uni egallash yo'llari, ilmiy istilohlarni tahlil etish va saralash masalalari muhtasar holda yoritilgan. F. Saidovning "Matn va tarjima" mavzuidagi dissertatsiyasi vorisiylik va istilohot, tarjimada lisoniy me'yor, soddalik va murakkablik mayllari, matn talqini va tarjima, ekvivalentlik va g'ayrimuqobilik, in'ikos va asliyat qonunining tarjimaga dahldorlik jihatlari, muallif va mutarjim, asliyat bilan tarjimaning o'zaro nisbati va munosabati, badiiy tarjimadan farqli o'laroq, ilmiy va ilmiy-publistsistik tarjimaning o'ziga xosligi, aniqlik va erkinlik, shuningdek, hijjalab o'girishning zarari, tahlil va tadqiqotda mantiq va tarjima, qayta yaratish san'atida turli lisoniy qatlamlardan foydalanish zarurati hamda shu singari bir talay masalalarni yoritishga bag'ishlangan. Tarjima nusxa ko'chirish kabi bir ish bo'lmay, ijodiy jarayon ekanini, tarjimon esa asl matnni tarjima matnga o'zgartirish jarayonidagi mohir yozuvchi bo'lishi kerakligini barcha tarjimonlarga oydindir. Turli davrlarda muayyan hududdagi adabiy muhit, ayniqsa, maxsus tarjima maktablarining yuzaga kelganligining o'ziyoq uning shakllangan tamoyillari, an'analari bo'lganligini ko'rsatadi. Bugungi kunda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab millat vakillari tilidan o'z ona tiliga ilm-fan va madaniyatning o'nlab sohalariga oid materiallarni tarjimalari amalga oshib kelmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy adabiyot mutarjimi badiiy asarlarni o'giruvchi tarjimon singari erkinlikka ega bo'lmaydi. Badiiy tarjimadan asosiy muddao kontekstning ta'sir kuchini boshqa tilda tiklash bo'lsa, ilmiy asarlar tarjimasida ilmiylikni to'la aks ettirish – bosh maqsaddir.

<sup>1</sup> Саломов Ф. Матн, таржима ва истилоҳ. Т. : 1989.

<sup>2</sup> Саломов Ф. Матн, таржима ва истилоҳ. Т. : 1989. p15

Albatta, tarjima nozik masala, ayniqsa ilmiy asar tarjimasi bevosita o'sha asarning ma'noviy jihati bilan bog'liqdir. Chunki agar badiiy asarda tarjimada kamchiliklar ro'y bersada, asosiy g'oya va syujet saqlanib qoladi va kitobxon umumiy syujet nima haqida ekanligini qiynalmasdan bilib olishi mumkin. Biroq, ilmiy asarlarda translatsion kamchiliklar kuzatilsa, bu tarjima qilingan asarning kitobxon tomonidan o'zgacha talqin qilinishiga, noto'g'ri tushunilishiga olib kelishi mumkin.

Chunki ilmiy asarlarda tarjimani qiyinlashtirishi mumkin bo'lgan bir nechta omillar borki, faqatgina mohir tarjimongina tarjima jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni bemalol yenga olishi mumkin. Aslida ham, "the work of scientific translators is to achieve one primary goal: to write information in a clear, concise, and accurate manner"<sup>3</sup> (ilmiy tarjimonning vazifasi bir maqsadga erishmoq, u ham bo'lsa asarni aniq, ixcham va konkret shaklda ma'lumot yaratishdir). Madaniy omillar esa ilmiy tarjimada juda kam hollarda ishtirok etgani bois, ilmiy tarjima va madaniy nuanslarning aloqadorlik jihati unchalik ko'p emas.

Biroq, jaxon adabiyotida shunday asarlar mavjudki, ularda ilmiylik, siyosat va badiiylik bir-biriga hamohang. Shuning uchun ham, ularni tarjima qilish yozuvchidan ulkan kasbiy mahorat va uzoq muddat talab qilib qilishi turgan gap.

Bu turdagi asarlardan biri XI asr ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo'shgan; tilshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, tarix, sotsiologiya va qisman dinshunoslik sohalari kesishmasida vujudga kelgan va bugungi kunda ushbu sohalarning taraqqiy etishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan, katta hajmli asarlar sirasiga kiradigan Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridir. Mahmud Qoshg'ariyning bu asari arab tili orqali Sharq va G'arb xalqlariga qadimgi turklarning tili, madaniyati, tarixi haqida to'liq ma'lumot beruvchi qomusiy kitob sifatida yaratilgan. "Devon" turkiy tilni o'rganish istagida bo'lgan arablarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida yaratilgan nodir asardir. Ushbu asar topilganiga qariyb bir asr bo'ldiki, dunyoning talaygina tillariga tarjima qilindi, u haqida sharh kitoblar, qo'llanma va ilmiy maqolalar yaratildi, ko'plab xorijiy kitobxonlarning olqishiga sazovor bo'ldi, ammo hanuzgacha asar bo'yicha ilmiy izlanishlar o'z nihoyasiga yetgani yo'q, chunki yuqorida ham bir necha bor ta'kidlanganidek, ushbu bebaho asar o'zida shunday qimmatli ma'lumotlarni saqlaydiki, tilshunos olimlar ushbu ilmiy xazinani yanada chuqurroq anglash maqsadida, unga qayta va qayta murojaat qilmnoqdalar va har safar ilm-fan kishilari unga yangidan yuzlanganlarida nimadir yangi qimmatli ma'lumotni topmoqdalar.

Misol uchun, asarning ingliz tiliga tarjima qilinish jarayonini namuna sifatida oladigan bo'lsak, mutaxassisligi sharqshunos bo'lgan Robert Dankoffning ushbu asarni tarjima qilishda hissasi beqiyos. Dankoff bir necha yillar davomida Turkiyadagi turk yozma yodgorliklarining tarixi, badiiy va matn xususiyatlari bo'yicha tadqiqot olib bordi. 1971-yilda Garvard universitetida turkiy va islomiy yodgorliklarni o'rganish bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib, doktorlik darajasini oldi. U o'z ilmiy izlanishlarida usmonli turk tilidagi O'rta Osiyo yozma yodgorliklarning til va badiiy xususiyatlarini o'rgangan. Turkolog turli dinlarning nazariyalaridan, xususan, Qur'on va hadislardan yaxshi xabardor bo'lgani uchun, Devon tarjimasidagi arabcha terminlar, Qur'ondan parchalar, arab grammatikasini tahlil qilishda muvaffaqiyatga erisha oldi. Tarjima jarayonida u ko'plab xatolar qildi, ayni shu xatolarni qayta tikladi, matndagi har bir so'zlarning ma'nolarini sinchiklab o'rgandi. Va 1982-85 yillarda

<sup>3</sup> Thivierge, 2002, p. 188

amerikalik turkshunos olimlar James Kelly va Robert Dankoff asarni tarjima qildi va keng ommaga taqdim etdi.

Darhaqiqat, butun boshli, bebaho asarni tarjima qilish oson ish emas, va umuman olganda asarning inglizcha tarjimasi asliyatiga juda yaqin keladi, ammo asar faqatgina ilmiy faktlardan emas, folkloristik, adabiy, madaniy va diniy qarashlarni o'z ichiga olgani uchun ham, turkiyzabon bo'lmagan inson tushuna olmaydigan madaniy, folkloristik va diniy nuanslar ham mavjud bo'lib, bu ba'zida asarni tarjima qilish jarayonida chalkashliklarga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

So'zimizning isboti o'laroq, asarning birinchi tomidan o'rin olgan quyidagi hikmatli so'z va uning tarjimasiga diqqatimizni qaratdik. Asarning asl turkcha variantida ushbu jumla "Kalasi ichtin, yilqi alasi tashtin"<sup>4</sup> keltirilgan bo'lib, o'zbek tiliga Solih Mutallibov tomonidan "odamning olasi ichida, yilqiniki tashida, sirtida" kabi tarjima qilingan. O'zbek tilida aynan shunga o'xshash maqol ham mavjud: "Odam olasi ichida, mol olasi tashida" kabi. Endi ayni maqolning ingliz tiliga o'girilgan variantini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u quyidagicha beriladi: "The leprosy of a man is on the inside, the leprosy of the animals is on the the outside"<sup>5</sup>. Ayni shu yerda "ala" va "leprosy" so'zlarini bir-biriga muqoyasa qilamiz, "ala" so'zi indeks lug'atda sekin, oq rangga ega va dushmanlik kabi ma'nolarga ega ekanligi ma'lum bo'ladi<sup>6</sup>. Inglizcha "leprosy" so'zi esa Oksford lug'atida quyidagicha ma'noga ega ekanligi ko'rsatiladi, ya'ni *a disease that causes painful white areas on the skin and can destroy nerves, muscles, etc.*<sup>7</sup> Bundan ko'rinib turibdiki, Dankoff "ala" so'zining ikkinchi ma'nosi, ya'ni "terida oq dog'lari bor" ma'nosini ochib berishga harakat qilgan, ammo Qoshg'ariy bu yerda uchinchi ma'no, "dushmanlik", "fikri buzuvchilik" ma'nosini berganligi sababli Dankoff tarjimada muvaffaqiyatsizlikka yuz tutgan. Natijada, jumladagi folkloristik ruh, majoziy ma'no o'z-o'zidan yo'qolgan, kitobxonga notanish tushuncha hosil bo'lgan. Kitobxonga maqolning semantic jihatdan to'g'ri yetkazilishi uchun, quyidagi tarjima mos keladi deb o'ylaymiz: *hostile of a person is on the inside, while hostile of animals is on the outside*.

Yuqoridagi namuna orqali Dankoff tarjima jarayonida barcha milliy-madaniy tushunchalarni ifodalab berishda to'siqqa uchragan degan fikrni berishdan yiroqmiz. Darhaqiqat, yuqorida ta'kidlaganimizdek, madaniy omillar tarjimonni chalg'itishi mumkin, ammo buyuk shoir aytganidek, "What is lost in the good or excellent translation is precisely the best"<sup>8</sup> (tarjimada boy berilgan yoki tushirib qoldirilgan so'zlar eng qimmatlisidir).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, M.Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari turkiy xalqlarning tarixi, madaniyati, turmush sharoiti va urf-odatlarini o'rganishda, qo'shimcha ravishda turkiy va hozirgi o'zbek tillarining bir-biriga ta'sirini aniqlashda juda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

<sup>4</sup> Koshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk. Tarjimon va nashrga tayorlovchi S.M. Mutallibov. Toshkent, 1960-63, 1-tom, 117-b

<sup>5</sup> Mahmud al-Kashgari. Compendium of the Turkic Dialects (Divan Lugat at-Turk)/Edited and translated by R. Dankoff, in collaboration with J. Kelly. Harvard University, 1982-1985 (with introduction and indices). Part 1, p58

<sup>6</sup> Devonu lug'otit turk, indeks-lug'ati, Istanbul 1915-17, 16 b

<sup>7</sup> <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/leprosy?q=leprosy>

<sup>8</sup> [Karl Wilhelm Friedrich Schlegel](#), German Poet, 1772-1829

### References:

1. Саломов Ғ. Матн, таржима ва истилоҳ. Т.: 1989
2. Саидов Ф. Матн ва таржима. Дисс. Т.: 1991.
3. Жаббор М. 20-30 йилларда Ўзбекистонда ижтимоий-сиёсий адабиёт таржимаси. Таржима муаммолари, /мақолалар тўплами/ -Т.: 1991.
4. Koshg'ariy M. "Devonu lug'atit turk. Tarjimon va nashrga tayorlovchi S.M. Mutalibov. Toshkent, 1960-63, 1-tom
5. Mahmud al-Kashgari. Compendium of the Turkic Dialects (Divan Lugat at-Turk)/Edited and translated by R. Dankoff, in collaboration with J. Kelly. Harvard University, 1982-1985 (with introduction and indices). Part 1
6. Devonu lug'otit turk, indeks-lug'ati, Istanbul 1915-17
7. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/leprosy?q=leprosy>



INNOVATIVE  
ACADEMY